



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No8
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 276 sahifa,
1-avgust, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayeva X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli: tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi.....	14
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna	
O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari.....	20
Abduraximov Doniyor Abdusaid o'g'li	
Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi: xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi.....	25
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi	30
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi	
Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar maktablarining zarurati va ahamiyati	33
Eshmuminova Oybarchin Botirovna	
Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv	39
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari	44
Maydonova Saboxat Sadullojevna	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalariga qiziqishni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari.....	48
Mingbayeva Barno Ubaydullayevna	
Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners in English Language Classes Through Digital Technologies	52
Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna	
Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari	55
Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi	
"Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida	59
Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna	
O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni	65
Umarova Feruzabonu Bobir qizi	
Gamifikatsiyalangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining 11–12 yoshli o'quvchilarda emotsional barqarorlikka amaliy ta'siri.....	68
Tojiyev Baxriddin Baxtiyorovich	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari	72
Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li	
Media va axborot savodxonligi 21-asr pedagoglarning asosiy kompetensiyasi sifatida.....	76
Boypolvonov Barot Djonqobulovich	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini takomillashtirishning lingvistik va lingvometodik talqini.....	81
Ismoilova Zarnigor Raximjon qizi	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari	86
Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li	
Pedagogik faoliyatda stress namoyon bo'lishiga ijtimoiy omillarning ta'siri.....	90
Jumanova Ug'loy Sodiqjonovna	
Oliy ta'lim muassasalarida nomutaxassislik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish.....	96
Koshayeva Sansabila Kamiljanovna	
Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro tajribalar va ta'lim jarayonining o'rni.....	100
Mamajonova Fotimaxon O'ktamovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati.....	105
Murodova Madina Karim qizi	
Elektrotexnika va elektronika fanini o'qitishning zamonaviy metodlari	108
Ortiqov Mironshoh Sodiqovich	



Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda Blended learning texnologiyasini O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga tatbiq etish.....	110
Pakirdinova Sharofat Abdumutaljonovna	
O'zbekistonda ta'lim sohasi bo'yicha strategik dasturlarni ishlab chiqish istiqbollari.....	115
Quronboyeva Mavluda Bahodirovna	
Xalqaro baholash dasturlari va neyropedagogika	120
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
6-sinf o'quvchilarida matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi	123
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi	
Talabalarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati	128
Yusupov Ulug'bek Kadirovich	
Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlashda motivatsiya uyg'otish texnologiyalarini takomillashtirish	132
F. Zaynabuddinov	
Развитие поликультурной компетентности студентов в образовательной среде вуза	135
Киреева Эльвина Фларитовна	
Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik xususiyatlar	140
Sanayev Gayrat Shermuxamedovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalar muloqot madaniyatini tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	144
Boybo'riyeva Saodat O'ralovna	
Kattalar ta'limi texnologiyasi: muammolar, yondashuvlar va rivojlanish yo'nalishlari	148
Davletova A.	
Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirishning huquqiy asoslari	152
G'aniyeva Gulrux Tavakkaljon qizi	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish	156
Madmarova Gulchexra Qodirovna	
O'lkashunoslik materiallarining oliy ta'lim jarayonida tarbiyaviy salohiyatini ochib berish	160
Mamajonov Mo'minjon	
Muhandislik grafikasi darslarida o'quv faoliyatining shaxsga yo'naltirilgan innovatsion modeli	165
Mamasidikova Gulnora Muhammad qizi	
Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy resurslarning pedagogik imkoniyatlari.....	169
Muhiddinov Muhriddin Nuriddin o'g'li	
Ijod maktablari o'quvchilarining badiiy-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati.....	173
Nurmatova Shohistaxon Muhammadjonovna	
Voleybolchi qizlarni tayyorlashning differensial vositalaridan foydalanish zarurligini, ularning o'yin ampluasini hisobga olgan holda aniqlash usullari	178
Odilova Feruzaxon Valijon qizi	
PIRLS baholash tizimini qo'llash vositasida mustaqil o'qishga o'rgatishda IMEN texnologiyalaridan foydalanish.....	184
Olimjonova O'g'ilxon Abdurasul qizi	
Yoshlar o'rtasida internet qaramligi va ijtimoiy izolyatsiya zamonaviy Maugli sindromining klinik ko'rinishlari	188
Polvanov Rasulbek Baxtiyarovich	
Boshlang'ich maktabda o'zbek tili darslarida differensial ta'limdan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari	192
Rasulova Nozigul Abdivahid qizi	
Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini takomillashtirish.....	196
Sharofova Nilufar Ilhom qizi	
Xalqaro baholash dasturlari asosida ta'lim samaradorligini oshirishning pedagogik shart-sharoitlari (PIRLS misolida).....	200
Tuxtasinova Munira Ibragimovna	
Fransuz tili darslarida tabiatshunoslik atamalarini boshlang'ich sinflarda shakllantirish va o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari.....	204
Umarova Madinabonu Bahodir qizi	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O'smir psixologik salomatligini barqarorlashtirishda art-terapiyadan foydalanishning imkoniyatlari	208
<i>Yusupxodjayeva Umida Baxodir qizi</i>	
Nofillologlarni (filolog bo'lmaganlarni) kasbiy aloqa madaniyatiga o'rgatish maqsadida zamonaviy ingliz tilining lingvometodik tahlili.....	214
<i>Zarina Itolmasova</i>	
Forsayt va qaror qabul qilishni bog'lovchi kognitiv komponentlar.....	219
<i>Hasanova Sumanbar Hamroqulovna</i>	
Разработка и внедрение виртуальных лабораторных работ по биохимии для студентов фармацевтических факультетов.....	222
<i>Мамадалиева Зарина</i>	
Abduqodir Shakuriyning ta'lim va tarbiya haqidagi umumiy qarash va g'oyalari: chuqur tahlil	226
<i>Ashurova Dilrabo Isroil qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish tizimi ..	230
<i>Jakbarova Zarifaxon Solijon qizi</i>	
Badiiy-estetik qobiliyat tuzilmasi va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar	233
<i>G. S. Kaxarova</i>	
Umumta'lim maktablarida informatika o'qitish asosida ta'limni raqamlashtirishning metodologik asoslari...	236
<i>Mamajanov Rakhmatilla Yakubjanovich</i>	
Shaxsda ma'naviy intellektni rivojlanishiga qadriyatlar yo'nalganligining ta'siri.....	240
<i>Mirxoliqova Charos Xabibullayevna</i>	
O'qituvchilarning sun'iy intellekt bo'yicha kompetentligini rivojlantirishda metodik yondashuv	244
<i>Najmetdinova Nargiza Sayfetdinovna</i>	
Ismlarning ma'holiligi va ularni o'qitishda lingvopedagogik yondashuvlar	252
<i>Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich</i>	
Fitnes-aerobika mashqlaridan foydalangan holda sog'lomlashtirish mashg'ulotlari uslubiyati.....	258
<i>Shaxriddinova Laylo Nurxonovna</i>	
Raqamli ta'lim texnologiyalarining didaktik va "learning analytics"ning nazariy asoslari	262
<i>Sulaymanov Zulqaynar Rajabali o'g'li</i>	
Esse yozishni o'rgatishda zamonaviy metodlar.....	268
<i>Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi</i>	
Iqtisodiy matnlar tarjimasini o'rgatishda raqamli simulyatsiya va virtual reallik (VR) texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari.....	272
<i>Xujanazarova Nozima Omonjonovna</i>	



BADIIY-ESTETIK QOBILIYAT TUZILMASI VA UNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

G. S. Kaxarova

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

ORCID :0009-0007-3159-8446

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodining boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy-estetik qobiliyatlarini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Turli manbalar asosida estetik qobiliyat strukturasi komponentlari, pedagogik shart-sharoitlar va xalq ijodi janrlarining didaktik imkoniyatlari ochib beriladi. Tadqiqotda folklor janrlarining obrazlilik, emotsional ta'sirchanlik va axloqiy-estetik mazmuni orqali o'quvchilarda estetik idrok, badiiy tafakkur va ijodiy ifodaning shakllanishiga xizmat qilishi ilmiy asosda yoritilgan. Maqola badiiy-estetik tarbiya sohasida samarali metodik yo'ndashuvlarni ishlab chiqish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, badiiy-estetik qobiliyat, estetik tarbiya, boshlang'ich ta'lim, obrazli tafakkur, estetik idrok, pedagogik yondashuvlar, didaktik imkoniyatlar.

Abstract: This article analyzes the role of folk oral creativity in developing the artistic and aesthetic abilities of primary school students. Based on various sources, it explores the structural components of aesthetic ability, pedagogical conditions, and the didactic potential of folklore genres. The study scientifically substantiates that folk genres, through imagery, emotional impact, and moral-aesthetic content, support the development of students' aesthetic perception, artistic thinking, and creative expression. The article serves as a theoretical basis for developing effective methodological approaches in the field of aesthetic education.

Key words: folk oral creativity, artistic-aesthetic abilities, aesthetic education, primary education, figurative thinking, aesthetic perception, pedagogical approaches, didactic potential.

Аннотация: В статье рассматривается роль устного народного творчества в формировании художественно-эстетических способностей младших школьников. На основе различных источников раскрываются компоненты структуры эстетических способностей, педагогические условия и дидактические возможности жанров фольклора. В исследовании научно обосновано, что народные жанры через образность, эмоциональность и нравственно-эстетическое содержание способствуют развитию эстетического восприятия, художественного мышления и творческого самовыражения учащихся. Данная работа может служить теоретической основой для разработки эффективных методических подходов в области эстетического воспитания.

Ключевые слова: устное народное творчество, художественно-эстетические способности, эстетическое воспитание, начальное образование, образное мышление, эстетическое восприятие, педагогические подходы, дидактические возможности.

KIRISH

O'quvchining ijodiy va estetik tafakkurini uyg'otish, uni ongli ravishda go'zallikni idrok etishga va yaratishga yo'naltirish zamonaviy pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Badiiy-estetik qobiliyat bolalarning intellektual, hissiy va axloqiy rivojlanishining ajralmas qismi sifatida e'tirof etilmoqda hamda bu qobiliyat turli yosh bosqichlarida turlicha shakllanadi, u maktabgacha, shuningdek, maktab davridagi pedagogik ta'sirlar orqali yo'naltiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun badiiy-estetik qobiliyat ularning obrazli mushohada yuritishi, ifodali fikrlashi, tasviriy obrazlarni tushunishi va ijodiy munosabat bildirishi orqali namoyon bo'ladi. Estetik tarbiya faqat badiiy asarlar bilan tanishtirishdan iborat emas, balki bola ongida ma'naviy-estetik dunyoqarashni shakllantirish, uning estetik ehtiyojlari va qadriyatlarini rivojlantirish, go'zallikka nisbatan ijobiy munosabatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Xalq og'zaki ijodi namunalari asoslangan ta'limiy jarayon bolalarda milliy o'zlik, obrazli tafakkur va badiiy-estetik sezgirlikni uyg'otishda samarali vositadir. Xalq og'zaki ijodi estetik didni shakllantirishda, tasviriy ifodani anglashda, badiiy obrazlar orqali tafakkurni boyitishda betakror vosita bo'lib xizmat qiladi va bunday ta'sir ayniqsa ertaklar, maqollar, topishmoqlar, matallar, afsonalarning badiiy tuzilmasi va obrazlilik vositalari orqali yuzaga chiqadi. Bolalarning estetik qobiliyatini rivojlantirish jarayonida individual psixologik xususiyatlar, ijtimoiy muhit va pedagogik yondashuvlar ham muhim omillar sirasiga kiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchining badiiy-estetik qobiliyatlarini shakllantirish o'ziga xos yondashuvni talab qiladi hamda bunda xalq og'zaki ijodi vositalarining beqiyos imkoniyatlari mavjud bo'lib, bu imkoniyatlar xalq donishmandligining badiiy ifodasi sifatida o'quvchining obrazli tafakkurini, estetik idrokini va madaniy qadriyatlar asosidagi dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi. O. Madayev "O'zbek xalq og'zaki ijodi" asarida folklor janrlarining estetik va tarbiyaviy funksiyasini asoslab, ertak, maqol, topishmoq, matallarning o'quvchilarda obrazli tafakkur va axloqiy ongini shakllantirishdagi rolini ko'rsatadi.

Sulaymonov xalq ijodining emotsional ta'siri va axloqiy-estetik obrazlar tizimini tahlil qilib, bolaga mos estetik mezonlar xalq janrlari orqali shakllanishini ta'kidlaydi. M. Jumaboyev esa bolalar folklorining estetik did va mushohada ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini alohida belgilaydi. S. N. Bezetko badiiy kvestlar, rolli o'yinlar va musiqiy-dramatik mashg'ulotlar orqali estetik qobiliyatlar bolalarda faol ishtirok orqali shakllanishini ko'rsatadi. N. Yu. Deryabina estetik rivojlanishda e'tibor, idrok, emotsional javob kabi psixologik omillarning rolini tahlil qilib, hissiy tajribaning ahamiyatini asoslaydi. S. M. Guseynova esa muzey ekspozitsiyasi orqali bola tafakkurida estetik baholash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini ochib beradi. G. G. Solodova va N. A. Klimova tomonidan ishlab chiqilgan estetik tarbiya modelida xalq og'zaki ijodini o'quv jarayoniga kiritishga alohida e'tibor qaratiladi.

Ularning olib borgan tadqiqot natijalari estetik rivojlanishni bosqichma-bosqich amalga oshirishni ko'rsatib beradi, ya'ni avvalo o'quvchi obrazni estetik jihatdan qabul qiladi, keyin uni tushunib baholaydi va yakunida badiiy ifoda orqali o'z fikrini bildirish imkoniga ega bo'ladi hamda bosqichlarning har biri xalq ijodidagi obrazlar vositasida shakllanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqolaning metodologiyasi nazariy-tahliliy yo'nalishga asoslangan bo'lib, unda xalq og'zaki ijodi orqali o'quvchilarning badiiy-estetik qobiliyatlarini shakllantirishga oid ilmiy manbalar – dissertatsiyalar, monografiyalar va darsliklar puxta o'rganilib, komparativ hamda strukturaviy tahlil asosida umumlashtirilgan. Tadqiqotchilarning qarashlari solishtirilib, estetik qobiliyatning kognitiv, emotsional, refleksiv va faoliyatga yo'naltirilgan jihatlari o'zaro bog'liqlikda tahlil etilgan.

Tizimli-pedagogik tahlil hamda tarixiy-nazariy yondashuvlar orqali xalq og'zaki ijodining janr xususiyatlari, obrazlilik darajasi va didaktik imkoniyatlari aniqlangan hamda badiiy-estetik qobiliyatning shakllanishi o'quv muhitining shart-sharoitlari, yosh xususiyatlari va faoliyat turlari bilan uzviy bog'liqlikda yoritilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning badiiy-estetik qobiliyatlarini shakllantirish har tomonlama pedagogik, psixologik va madaniy yondashuvlarni talab etadi. Estetik tarbiya nafaqat go'zallikni idrok etishga, balki uni ongli ravishda qabul qilishga o'rgatadigan murakkab jarayon bo'lib, bu jarayonda xalq og'zaki ijodi vositalari alohida o'rin egallaydi. Xalq og'zaki ijodini o'quv dasturlariga integratsiyalash orqali estetik tarbiyaning mazmuni boyitilib, obrazli tafakkur, did, idrok kabi qobiliyatlar uyg'un tarzda shakllanadi. Xalq og'zaki ijodi xalqning hayot falsafasi va badiiy tafakkurining mahsuli bo'lib, har bir janr o'ziga xos tuyg'u va axloqiy-estetik g'oyalarni mujassamlashtiradi.

Ertaklar ezgulik va yovuzlik to'qnashuvi orqali o'quvchida estetik qadriyatlar haqida tushuncha uyg'otadi. Maqollar va matallar obrazli fikrlashga, qisqa shakldagi badiiy ifoda orqali chuqur ma'no anglashga undaydi. Topishmoqlar esa tafakkurni charxlaydi, obrazli mushohadaga chorlaydi. M. Jumaboyev ta'kidlaganidek, "bolalar folklori obrazlarining hissiy idrok va estetik didni shakllantirishdagi ta'siri beqiyos bo'lib, ularning maktabgacha va maktab davridagi idrok imkoniyatlariga to'la mos keladi".

Xalq og'zaki ijodida aks etgan estetik g'oya va qadriyatlarni bolalar ongiga ular uchun tushunarli va yaqin obrazlar orqali singdirish zarur. Ana shunda bu jarayon bolalarning milliy qadriyatlar asosida shakllanuvchi estetik dunyoqarashi bilan bevosita bog'liq tarzda rivojlanadi va milliy folklor estetik tarbiyaning muhim manbai sifatida didaktikaning tarkibiy qismiga aylanadi. Badiiy-estetik qobiliyat – bilimlar, hissiy idrok, obrazli tasavvur, badiiy ifoda va motivatsion ehtiyojlar majmuasi asosida shakllanuvchi murakkab psixik tuzilmadir.

Ushbu qobiliyat tarkibida kognitiv, hissiy, refleksiv va ijodiy komponentlar ajralib turadi va ularning har biri o'quvchi shaxsining estetik shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Badiiy ifoda va nutq orqali estetik idrok rivojlanib, xalq og'zaki ijodi janrlarining estetik funksiyalari bilan bevosita uyg'unlashadi. Har bir janr o'ziga xos badiiy shaklga ega bo'lib, unda estetik mezonlar san'at vositalari orqali bola tafakkuriga ta'sir etuvchi shaklda mujassam bo'ladi. Xalq og'zaki ijodi bilan tanishuv o'quvchida nafaqat bilim, balki estetik munosabat shakllanishiga ham xizmat qiladi va estetik obrazga nisbatan his-tuyg'u hamda tafakkur uyg'otish orqali o'quvchi go'zallikni anglashga va unga ongli munosabat bildirishga yo'naltiriladi. O'qish savodxonligi darslarida xalq ijodi namunalariidan foydalanish estetik tarbiyaning samarali yo'li sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun



estetik idealga yaqinlashish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bu esa ta'lim mazmunini faqat bilim berishga emas, balki estetik shakllanishga ham yo'naltirish zarurligini ko'rsatadi.

Xalq og'zaki ijodi vositalarini ta'lim jarayoniga samarali integratsiyalashda o'qituvchining faoliyati alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayonning muvaffaqiyatli kechishi birinchi navbatda pedagogning metodik yondashuvi, badiiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan didaktik materiallar bilan ishlash qobiliyati, san'at vositalarini dars mazmuniga uyg'unlashtirish ko'nikmasi hamda o'quvchilarning estetik ehtiyojlari va yoshiga mos yondasha olish mahoratiga bog'liqdir. O'qituvchidan bu yo'nalishda nafaqat nazariy bilim, balki badiiy tafakkurni rivojlantiruvchi usullarni chuqur anglash, dramatik ifoda, obrazlilik va mushohada orqali o'quvchilarda estetik mulohaza yuritish ko'nikmalarini shakllantirishga qodir bo'lgan yuksak kasbiy mahorat talab etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan metodik yondashuvlar izchil bosqichlar asosida tashkil etiladi va bu bosqichlarning har birida xalq og'zaki ijodi janrlaridan maqsadga muvofiq, didaktik jihatdan asosli foydalanish nazarda tutiladi.

Dastlabki bosqichda o'quvchilarda badiiy hodisalarni tushunishga bo'lgan qiziqish uyg'otiladi va ular ertak, maqol, topishmoq singari janrlar orqali obrazlar, ritmik tuzilmalar va voqealar rivojini anglab, ularning estetik mazmuni ustida fikr yuritishni boshlaydilar. Keyingi bosqichda o'quvchilar xalq og'zaki ijodi namunalaridagi obrazlarni tahlil qilish, ularning xatti-harakatlarini qiyoslash, voqealarning axloqiy va estetik tomonlarini anglash orqali estetik qadriyatlar asosida voqelik mohiyatini tushunish va o'z nuqtayi nazarini shakllantirish malakasiga ega bo'ladi.

Uchinchi bosqich mustaqil tahlil qilish, xulosa chiqarish, ertak yoki rivoyatdagi qahramonlarning harakatlarini baholash, ijobiy va salbiy jihatlarini ajratish, voqea yakuniga nisbatan o'z munosabatini bildirgan holda estetik mulohaza yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Yakuniy bosqichda o'quvchilarning ijodiy faoliyati shakllanadi, ular xalq og'zaki ijodi namunalarini o'ziga xos tarzda qayta bayon qiladi, sahnalashtiradi, rasm chizadi yoki dramatik ifoda orqali estetik kechinmalarini ifoda etadi.

XULOSA


Olib borilgan tahlillar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi: xalq og'zaki ijodi vositalari – ertaklar, maqollar, topishmoqlar, matallar va afsonalar – boshlang'ich sinf o'quvchilarining obrazli tafakkurini shakllantirish, badiiy mushohada olib borish, axloqiy-estetik qadriyatlarni anglash hamda ifodalash qobiliyatini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu janrlar o'zining obrazlilik, ifodaviylik, ritmik qurilish va badiiy vositalarning serqirraliligi bilan o'quvchining tafakkur jarayoniga faol ta'sir ko'rsatadi.

Badiiy-estetik qobiliyat murakkab psixik tuzilma bo'lib, kognitiv, hissiy, refleksiv va ijodiy (faoliyatga yo'naltirilgan) komponentlardan iboratdir. Har bir komponent estetik tarbiyaning o'ziga xos funksiyasini bajaradi va ularning o'zaro uyg'unligi orqali o'quvchining estetik qobiliyatlari izchil rivojlanib boradi. Xalq og'zaki ijodini ta'lim jarayonida estetik tarbiya vositasi sifatida qo'llashda o'qituvchining didaktik mahorati muhim ahamiyatga ega, chunki uning estetik materiallar bilan ishlash tajribasi, san'at unsurlarini dars mazmuniga uyg'unlashtirish malakasi o'quvchilarning estetik idrokini shakllantirishda asosiy rol ni o'ynaydi.

O'quv materiallarini tanlash, o'quvchilar uchun qiziqarli va ahamiyatli bo'lgan ijodiy topshiriqlarni tashkil qilish kabi metodik faoliyatlar badiiy-estetik tarbiyaning mazmunini boyitadi hamda ularni estetik mazmuni anglashga yo'naltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alaviya M. O'zbek xalq qo'shiqlari. – Toshkent, 1959.
2. Grishina I.S. Formirovanie sotsial'no-lichnostnogo opyta u mladshikh podrostkov posredstvom fol'klora. – Sankt-Peterburg, 2018. – 145 s.
3. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. – Toshkent: TDPU, 2011. – 245 b.
4. Kashekova I.E., Medkova E.S., Piryazeva E.N. The influence of art and artistic and creative activities on the quality of information assimilation // Scientific Journal. – 2022. – Vol. 5, № 3. – P. 96–104.
5. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: O'zbekiston, 2006. – 320 b.
6. Myszkowski N., Zenasni F. Individual Differences in Aesthetic Ability: The Case for an Aesthetic Quotient // Frontiers in Psychology. – 2016. – Vol. 7. – Article No. 750. – DOI: 10.3389/fpsyg.2016.00750.
7. Pizzolante M., Pelowski M., Demmer T.R., Bartolotta S., Sarcinella E.D., Gaggioli A., Chirico A. Aesthetic experiences and their transformative power: A systematic review // Frontiers in Psychology. – 2024. – Vol. 15. – Article No. 1328449. – DOI: 10.3389/fpsyg.2024.1328449.
8. Proskurina L.K. Formirovanie esteticheskogo otnosheniya k predmetnomu miru u studentov-dizaynerov v obrazovatel'nom protsesse vuza. – Voronezh, 2016. – 172 s.
9. Solodova G.G., Klimova N.A. Esteticheskoe razvitiye lichnosti v vospitatel'no-obrazovatel'nom protsesse shkoly. – Kemerovo, 2003. – 144 s.
10. Sulaymonov M. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Namangan: NDPI, 2008. – 290 b.
11. Shafikova R.Sh. Formirovanie khudozhestvenno-esteticheskoy kultury studentov-dizaynerov v vuze sredstvami zhivopisi. – Moskva, 2016. – 192 s.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.